

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI 5 E MODELİ ASOSIDA TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

f.f.d.(PhD), dots. Sh.I. Siddiqova

Tel: +998915985522

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi

1-kurs magistranti L.B.Irisova

E-mail: lobarislomova05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida 5 E modelidan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. –sinf darsligi misolida modelni amaliyotda qo'llashga oid namuna keltirilgan.

Kalit so'zlar: 5 E ta'lim modeli, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, buyuklik tadqiqoti, eksperiment, ta'lim tizimi.

Аннотация. В этой статье освещается важность использования модели E на уроках родного языка в начальных классах. На примере учебника для 5 класса приведен пример применения модели на практике.

Ключевые слова: 5 Образовательная модель E, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, исследование величия, эксперимент, система

Annotation. This article highlights the importance of using the 5E model in native language lessons in elementary school. An example of applying the model in practice is provided using the example of a classroom textbook.

Keywords: 5 E education model, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, research of greatness, experiment, education system.

34 yildan ortiq vaqt mobaynida ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar 5E ta'lim modelining samaradorligi yuqori ekanligini tasdiqladi. 5E modeli besh bosqichdan iborat: engage, explore, explain, elaborate, evaluate. Har bir bosqich o'ziga xos funksiyaga ega va umuman olganda, ular o'qituvchiga izchil ko'rsatma berishga va o'quvchiga ilmiy bilimlarni yaxshiroq

tushunish va saqlashga yordam beradigan tegishli faoliyat bilan shug'ullanishga yordam berishga qaratilgan bilim.

5E modeli – bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun ishlatiladigan metodik yondashuv. Bu model besh bosqichga bo'linadi, har biri o'quvchining o'qish jarayonidagi turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Bolalar yoshligida o'z ehtiyojlari uchun juda kreativ bo'lishadi, ammo biz kattalar “ buni qilma “, “bu mumkinmas “ kabi buyruqlar orqali ularning kreativligini so'ndirib boramiz.

Amerika davlatida voyaga yetayotgan bolalarning kelajakda buyuklikda qanchalik hissasi borligini aniqlash uchun tadqiqot o'tkazib ko'rishibdi. Besh yoshli bolalardan test olgan ekan, ya'ni ular qanchalik aqilli, qanchalik noodatiy fikrlaydi va kreativ yondashadi. Test natijasiga qarab buyuklikda qanchalik nasibasi bor. Natija 98% chiqibdi. Masalan, bu bolalar yuzta bo'lgan deylik, shulardan 98 tasi kelajakda nobel mukofotini olishi mumkin degani. Bu degani, Xorazmiy, Beruniylar shu qadar ko'p degani. Oradan besh yil o'tib o'sha bolalardan yana test olingan. Bu safar 35% chiqqan. Bu vaqtga qarasaq bola o'n yoshda va u maktabda uch to'rt yil o'qib qo'ygan. Besh yildan so'ng yana olishgan bunda natija 12%, keying besh yil o'tib olingan natijalar esa 2% ni ko'rsatgan. Bu tadqiqotdan nimani anglash mumkin. Butun dunyoning ta'lim tizimi oddiylarni buyuk qilishga emas buyuklarni oddiy qilishga qaratilgan. Biz mana shu buyuklarni buyukligicha saqlab qolishga harakat qilishimiz kerak. Buning uchun 5E modeli katta ahamiyat kasb etadi.

5E modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Engage (Qiziqtirish). Bu bosqichda bolajonlarda yangi mavzu bo'yicha yuqori darajadagi qiziqishni uyg'otish, diqqatini jamlash, mavzu ichiga kirishlarini ta'minlash so'raladi. Buning uchun mavzuni juda chiroyli, qiziqarli hikoya, ertak yoki latifa ichiga kiritish yo bo'lmasa video lavha ko'rsatish mumkin. Bu bosqich oldindan bilimlarni oshkor qilish ham deb ataladi va quyidagilarni talab etadi:

- ✓ Oldingi bilimlar faollashtiriladi
- ✓ Diqqatni jalb qilish
- ✓ Motivatsiya
- ✓ Qiziqish uyg'otmoq va qo'zg'atmoq

2. Explore (O'rganish). O'quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash. Bunda o'quvchilar mavzu bo'yicha turli eksperimentlar o'tkazadi, muammolarni muhokama yo'li bilan yechishadi, tadqiqotlar olib boradi. O'quvchilarga kreativligini bildirish uchun imkoniyat yaratish zarur.

3. Explain (Tushuntirish) Bu bosqichda o'qituvchi bolajonlarga o'rganilgan materialni yoki mavzuni tushuntiradi. Ular o'z fikrlarini ifodalashadi hamda o'qituvchi mavzuga oid tushunchalarni

to'liqroq izohlaydi. Izohlash hayotiy jarayonlarga bog'lab berilishi va o'quvchi tasavvurida uyg'onib, ongida qolishi muhim ahamiyatga ega.

4. Elaborate (Kengaytirish) O'quvchilarga yangi bilimlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. Bunda o'quvchilar bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llashadi, masalan, boshqa mazular bilan bog'lash, boshqa fanlar bilan integratsiyalash, undan foliyati jarayonida foydalana olish kabilar.

5. Evaluate (Baholash) Bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini sinovdan o'tkazadi, ularning mavzu yuzasidan tushunganini, fikirlashini, qanchalik kreativ yondashishini, aniqlaydi. Buning uchun ulardan ochiq va yopiq shakldagi testlar, matnli savollar, og'zaki savol javob kabilar olinadi.

5E modeli boshlang'ich sinf darslarida tashkil qilinishi chuqur ahamiyatga ega. Jumladan, bu model orqali darsning davomiy qizg'in va muhokamali hamda takliflarga boy bo'lishi taminlanadi. Beshta bosqich uzviy bog'langan bo'lib bir birini to'ldiradi. Birinchi bosqichda o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishi va talabi ortadi hamda diqqati jamlanadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar ikkinchi bosqichga qiziq bir savol orqali yo'naltiriladi. Navbatdagi bosqichning o'ziga xos ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga o'rgatadi, mustaqil fikrlashini o'stiradi, o'z galar so'zini tinglashga ularni hurmat qilishga odatlantiradi. Bular esa o'quvchilarning kelajakda jamiyat orasiga singib ketishi va o'z mustaqil fikrlarini ravon bayon qila olishi, jamiyatni ma'lum darajada boshqara olishini taminlaydi. Uchinchi bosqichda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda berilgan savolga umumiy javob tayyorlaydilar hamda nega aynan mana shu javob bo'lganligi murabbiy tomonidan izohlab ochib beriladi. Bu yerda chuqur muhokama bo'lgan ma'lumot o'quvchi yodida muhrlanib qolishi ahamiyat kasb etadi. To'rtinchi bosqichda berilgan savolning javobiga dalil sifatida asosiy mavzu o'qituvchi tomonidan to'la to'kis ochib beriladi. Bu bosqichda o'qituvchining mavzuni qanchalik chiroyli ochib berishi o'quvchilarga qay darajada yetib borishi muhim ahamiyatga ega. Avraam Linkolnning shunday gapi bor: " Menga daraxt kesishga yetti soat vaqt berilsa, to'rt soatini boltamni charxlashga sarflagan bo'lardim. " O'qituvchi ham Linkolndek yo'l tutsa ayni muddao. So'ngi bosqichda har bir bosqich qanchalik natijaga erishilgani aniqlanadi. Bunda diagramma, testlar orqali o'quvchining mavzuni qay darajada o'zlashtirganligi, qaysi qismlarida bo'shliq borligi aniqlanishi, ularga yechim sifatida uyga vazifa berilishi orqali bo'shliqlar to'ldirilishi ahamiyatga ega.

Samarali dars - ta'lim oluvchilarning yuzaki o'rganishdan chuqur o'rganishga va undan keyin esa o'rganishlarni qo'llash kabi o'zgarishlarga olib keladigan ham hissiy ham bilishga oid qobiliyatini o'z ichiga olishi shart.

Yuzaki o'rganish – bu ma'lumotlarni va fikrlarni o'zlashtirish yoki chuqur o'rganish uchun zarur bo'lgan yuzaki bilimdir. Aynan 5E modelining Engage(qiziqtirish) va Explore(o'rganish) bosqichlarida yuzaki o'rganish shakllanadi.

Chuqur o'rganish – bu g'oyalarni kengroq talqin qilish, bilim va ko'nikmalarni yangi qirralarda yoki ijodiy usullarda qo'llash, dalillarni tanqid qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu esa 5E modelining Explore(o'rganish), Explain(tushuntirish), Elaborate(kengaytirish) bosqichlarida namoyon bo'ladi. 5E modelining jalb qilish bosqichi o'qituvchilarni o'z o'quvchilariga oldingi bilimlaridan maqsadli va faol foydalanishga yordam berishga undaydi. Zotan, oldingi bilimlarni yaratish ikki qirrali qilich bo'lishi mumkinligi sababli, masalan, agar o'quvchilar yaratadigan bilimlar kontekstga mos kelmasa yoki noto'g'ri bo'lsa o'qituvchi yo'l yo'riq sifatida muhim ahamiyatga ega: ular o'quvchilarni o'z fikrlarini ochiq aytishga undaydi, fikr yuritishga yordam beradi, o'quvchilarning fikrlarini to'g'ri yo'nalishga yo'naltiradi va boshqaradi.

Sinf muhokamalari. Bu nafaqat oldingi bilimlarni faollashtirish, balki o'quvchilar e'tiborini oldingi bilimlarining o'quv vazifasiga taaluqli bo'lgan jihatlariga qaratish ham muhimdir.

Ta'lim sohasidagi tadqiqodchilar va fan o'qituvchilari o'rganishni nafaqat o'zlashtirish jarayoni, ya'ni mavjud va tegishli bilim tuzilmalariga yangi ma'lumotlarni o'zgartirmasdan kiritish (bilimni to'plash deb ham ataladi) deb ta'riflamaydilar. O'rganish odatda joylashtirish jarayonini talab qiladi, bunda o'quvchining ta'limdan oldingi konseptual tuzilmalari mo'ljallangan bilimlarni tushunishga imkon berish uchun tubdan qayta tuzilishi kerak. Tushuntirishda o'quvchilar yangi bilimlarning zarurligini va uning hayot bilan bog'liqligini tushunganlarida, o'z vaqtida tushuntirish bilimlarini kelajakda tegishli kontekslarda foydalanish uchun mavjud bo'ladigan tarzida yaratishga yordam beradi. Shu sababdan, O'rganish bosqichida o'rganilgan yangi tushunchalar Tushuntirish bosqichida rasmiylashtiriladi, bu esa o'qituvchilarga yoki o'quv dasturiga ushbu tushunchalarni to'g'ridan to'g'ri va rasmiy ravishda kiritish imkoniyatini beradi hamda o'quvchilarga yangi bilimlarini kodlash va keyinchalik qayta tiklashni osonlashtiradigan tarzda tartibga solishga yordam beradi. O'quvchilarning bilim doirasini tashkil qilish usuli ularning qanday o'rganishi va bilganlarini qo'llashga ta'sir qiladi.

Elaborate bosqichi o'rganilgan tushunchalar va protseduralarni bir nechta vaziyatlarda qo'llash bo'yicha kengaytirilgan amaliyot uchun o'rin ajratadi. Kengaytirilgan amaliyot. Agar yangi narsalarni o'rganish kerak bo'lsa, ayniqsa, maqsad bu yangi bilimlarni vaqt o'tishi bilan saqlab qolish va yangi vaziyatlarga o'tkazish bo'lsa, muhim ahamiyatga ega.

Nihoyat, Baholash bosqichida har bir o'quvchi tomonidan egallangan ma'lumot va hissiy hamda bilishga oid qobilyatlar ularning tushunishini qiyinlashtiradigan faoliyat orqali aniqlanadi, baholanadi. Shakl shubhasiz, baholash o'quv jarayoninig oldingi bosqichlarida, butun dars jarayoni

davomida o'quvchilarning fikr mulohazalari, savollarga javoblari hamda darsda faol ishtirok etishi bo'yicha baholash mumkin. Ammo, amaliy ta'lim masalasiga javob beradigan fan ustozlari ta'lim natijalarini baholashlari va o'quvchilarga baho qo'yishlari kerak. Shuning uchun, agar bu bosqich o'quv ketma – ketligi oxirida qo'llanilsa, o'qituvchilar individual o'quvchilarning tushunish va hissiy hamda bilishga oid qobiliyatlarining darajasini aniqlash uchun testlar yoki boshqa turdagi baholash faoliyatini boshqarishi mumkin bo'ladi. Bu o'quvchilar uchun o'z bilimlarini baholash uchun muhim imkoniyatdir.

Yon eslatma sifatida shuni ta'kidlash kerakki, 5E modeli tushunish bilan o'rganishni rag'batlantirishga qaratilganligi sababli, baholash faoliyati shunga mos ravishda yuzaga kelishi usullarining rang barangligi o'quvchilarning qiziqishlarini hamda hissiy va bilishga oid qobiliyatlarini namoyish etishlari uchun ularga imkoniyat yaratib beradi.

5E ta'lim metodidan darslarni loyihalashda mohirona foydalanish mumkin. Bu metod fanlardagi mavzularni o'qitishdagi ilg'or tajribalarni o'zida uyg'unlashtira oladi. Ta'lim usullarining rang barangligi o'quvchilarning diqqat va qiziqishlarini hamda hissiy va bilishga oid qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun ularga imkoniyat yaratib beradi.

Voyaga yetayotgan yoshlarning muhim ko'rsatkichlaridan biri shundaki, ular har qanday vaziyatda o'z yo'nalishlarini aniqlay oladilar hamda butun diqqatlarini o'rganishga qaratish orqali mavjud muammolarni hal qilish uchun mas'ul bo'lishga intiladilar. 5E ta'lim usulidagi bosqichlardan kelib chiqqan holda o'quvchilar nafaqat ustozining ma'lumotlarini eshitishlari, balki yangi tushunchalarni o'rganish va boyitishda bevosita qatnashish orqali faol rol o'ynashadi. 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) o'quvchilarga fan g'oyalarini mustaqil tajriba qilishlarida ijodiy imkoniyatini taqdim etuvchi ta'lim uslubidir. O'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda dars mashg'ulotlarini rejalashtirish maqsadga erishishning muhim ahamiyatiga aylanishi mumkin. Ana shunday vaziyatda esa 5E modeli o'qituvchilarga o'quvchilar uchun izchil va qiziqarli dars tajribasini vujudga keltirishga yordam beradi.

Biz yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kreativlikka to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki, o'quvchilarda kreativ faollikning shakllanishi ijod qilish hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarining hosil bo'lishiga olib keladi. Bu ko'rinish ham aynan modelda o'z aksini topgan. 5E o'qituvchi uchun hamda o'quvchi uchun muvaffaqiyatga erishish xaritasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darsligida bu model qo'llanishi o'quvchilarning aynan mana shu fandagi ma'lumotlar xotirasida qolishiga zamin yaratib beradi, nutqini, fikrlash doirasini, kreativligini o'stiradi, jamiyat orasida o'z o'rnini topishga yordam beradi. Model orqali boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi yuzaga kelganda o'quvchilar ongida fanlararo aloqadorlik

shakllanadi hamda boshqa fanlar malumotlari ham shu fanga bog'langan holda o'quvchi yodida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 B.Namdar, M.Kucuk. Preservice Science Teachers' Practices of Critiquing and Revising 5E Lesson Plans. Journal of Science Teacher Edukation. 2018, May.
- 2 Fatchul Fauzi, Ali Mustadi. Learner autonomy using 5e learning cycle. Universitas Negeri Yogyakarta, Indonesia, 2019.
- 3 II- Ustozlar Forumi materiallari, 2023.
- 4 Dale, E. (1969). Audiovisual Methods In Teaching.
- 5 Badalova Maqsuda Umarovna. Ta'limda 5E modeli.